



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини худудий ташкил этиш ва ихтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

BUDJETLARARO MUNOSABATLARNING IQTISODIY MAZMUNI

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ МЕЖБЮДЖЕТНЫХ ОТНОШЕНИЙ

ECONOMIC CONTENT OF INTERBUDGETARY RELATIONS

Xursanova Fotima Shermat qizi
O‘ZMU Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada byudjetlararo munosabatlarning iqtisodiy ahamiyati va mamlakat moliya tizimidagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy byudjetlar faoliyatini samarali tashkil etish, mahalliy byudjet daromadlari bazasini oshirish hamda mahalliy byudjetlar mustaqilligini ta’minlash masalalari O‘zbekiston Respublikasi misolida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Byudjet, davlat byudjeti, byudjetlararo munosabatlar, moliya, iqtisodiyot, bufet daromadlari va xarajatlari, transferlar, subvensiya, dotatsiya, byudjetlararo o‘zaro hisob-kitoblar, o‘tkazib beriladigan daromadlar.

В данной статье анализируется экономическое значение межбюджетных отношений и их роль в финансовой системе страны. Также на примере Республики Узбекистан рассматриваются вопросы эффективной организации местных бюджетов, увеличения бюджетной базы местных органов власти и обеспечения независимости местных бюджетов.

Ключевые слова: бюджет, государственный бюджет, межбюджетные отношения, финансы, экономика, бюджетные доходы и расходы, трансферты, субсидирование, межбюджетные расчеты, перечисляемые доходы.

This article analyzes the economic significance of inter-budgetary relations and their role in the country’s financial system. Also, the issues of effective organization of local budgets, increasing the local budget revenue base, and ensuring the independence of local budgets are considered on the example of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: Budget, state budget, inter-budgetary relations, finance, economy, budget revenues and expenditures, transfers, subvention, subsidy, inter-budgetary settlements, transferred income.

Davlat jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va aholi farovonligini oshirish kabi vazifalarini bajarishda asosiy moliyaviy manba sifatida o‘zining davlat byudjetiga tayanadi. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining markaziy bo‘g‘ini hisoblanib, u orqali davlatning barcha iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarini moliyaviy jihatdan ta’minlanadi. Bugungi kunga kelib, davlat moliya tizimining qanchalik samarali faoliyat yuritayotganligini byudjet tizimi va byudjet tizimining turli bo‘g‘inlari o‘rtasidagi munosabatlarning qay darajada oqilona tashkil etilganligida ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatning respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlar hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni yumshatish, moliyaviy resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, aholiga ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarining bajarilish darajasini hududlar kesimida bir xil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda mahalliy byudjet xarajatlarini mahalliy byudjet xarajatlari hisobidan ta’minlash imkoniyati past, xususan, ko‘plab hududlarning mahalliy byudjet xarajatlarini mahalliy byudjet daromadlari hisobidan to‘liq moliyalashtirish imkoniyati yetarli emas. [1] Shu bois ushu xarajatlarni qoplash, mahalliy byudjet daromadlarini oshirish hamda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash markaziy byudjetdan moliyaviy mablag‘larga ehtiyoj sezilmoqda, bu esa ushbu mavzu qanchalik dolzarb ekanligidan dalolatdir.

Byudjetlararo munosabatlar va mahalliy byudjetlar o‘rtasidagi transferlar tizimi davlat moliyaviy boshqaruvining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bu mavzu ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan nazariy va uslubiy jihatlardan keng o‘rganilgan. Xorijlik iqtisodchi olimlardan Richard M. Bird, François Vaillancourt, Анвара Шаха, Усков Игорь Валерьевич, Richard A. Musgrave kabilar byudjetlararo munosabatlarni samarali tashkil etish, moliyaviy resurslarni taqsimlashning makroiqtisodiy va fiskal asoslarini tahlil qilish bilan shug‘ullangan [2].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.V.Vahobov T.S.Malikov, N.E.Iskandarova, B.I.Nurmuxamedova, N.N.Ismatullayeva, M..Xodjayeva, N.Sh. Xajimuratov, B.A. Xasanov, N.F. Karimov, A.G. Abduhakimovna, B. Xamdamov va boshqalar byudjetlararo munosabatlarning nazariy va amaliy jihatlarini yoritganlar [3]. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy adabiyotda byudjetlararo munosabatlar va subvensiyalar tizimining muammolari hali to‘liq, yaxlit kompleks tarzda, mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Bu esa tanlangan mavzuning nihoyatda dolzarbligidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqot jarayonida ilmiy mushohadalar, jadval va grafik, tizimli tahlil, statistik guruhlash, taqqoslash kabi metodlardan foydalanilgan.

Byudjetlararo munosabatlar davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, markaziy va mahalliy byudjetlar o‘rtasida moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi 132-moddasida byudjetlararo munosabatlarga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Byudjetlararo munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tumanlar, shaharlar byudjetlari, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari o‘rtasidagi ushbu Kodeks bilan tegishli byudjetlarga biriktirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga doir munosabatlardir”.

Byudjet jarayonida:

- O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan;
- davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining bir-biri bilan, shuningdek boshqa ma’muriy-hududiy birlikning tumanlari va shaharlari byudjetlari bilan;
- tumanlar va shaharlar byudjetlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlariga yo‘l qo‘yilmaydi[4].

Ilmiy adabiyotlarda byudjetlararo munosabatlar turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlashga, hududlar o‘rtasida moliyaviy muvozanatni ta’minlashga, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish hamda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi mexanizm talqin qilinadi.


Byudjetlararo munosabatlarda byudjetlararo transfertlar muhim ahamiyat kasb etib, ular yuqori darajali byudjetlardan quyi byudjetlarga ushbu byudjetlarning xarajat majburiyatlarini qoplash maqsadida ajratiladi. Byudjetlararo transfertlar subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘lar, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar va maqsadli ijtimoiy transfertlar shaklida amalga oshiriladi va ular maqsadiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

➤ Subvensiyalar asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilangan xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratiladi.

➤ Tegishli ma’muriy-hududiy birliklar hududida shakllantiriladigan va yuqori turuvchi byudjetga o‘tkaziladigan daromadlar ular qaysi ma’muriy-hududiy birlikda shakllantirilgan bo‘lsa, o‘sha ma’muriy-hududiy birlik byudjetiga o‘tkazib berilishi mumkin.


➤ Yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga dotatsiya quyi turuvchi byudjet xarajatlarning rejalashtirilgan hajmi subvensiyalar va o‘tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur byudjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, byudjet tizimida byudjet daromadlari manbalarini ko‘paytirish, mahalliy byudjetlar mustaqilligini ta‘minlash hamda byudjetlararo transferlar tizimi takomillashtirish borasida ham izchil islohotlar olib borilmoqda. 2021-yilda byudjet daromadlari 64.8 trln so‘mni tashkil etib, 2020- yilga nisbatan 31.9 trln so‘mga ko‘p bo‘ldi. 2022-yilda 20.19 trln so‘mni tashkil qilib, daromadlar 2021-yilga nisbatan 37.1 trln so‘mga ya‘ni 22.5 % ga ko‘p bo‘ldi. 2023-yilda esa bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 29.9 trln so‘mga ya‘ni 14.8 % ga ko‘p bo‘ldi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, byudjet daromadlari tarkibining asosiy qismini foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliqlar, qo‘shilgan qiymat solig‘i kabilar tashkil qiladi. Qator chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan davlat byudjeti xarajatlari oshib ketmoqda.



1-rasm. Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari va xarajatlari (mlrd so‘m) [5]

Yuqoridagi 1-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, 2021-yilda davlat byudjeti daromadlari 164 799.4 mlrd so‘mni, byudjet xarajatlari 188 257.1 mlrd so‘m, 2022-yilda byudjet daromadlari 201 863.7 mlrd so‘m, byudjet xarajatlari 236 692 mlrd so‘mni, 2023-yilda esa daromadlar ko‘rsatkichi 231 721.3 mlrd so‘mni, xarajatlari esa 281 097.4 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bu esa davlat byudjeti daromadlari xarajatlaridan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.



2-rasm. Mahalliy byudjet parametrlari [6]

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Yuqoridagi 2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi tafovut katta. 2022-yilda mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi farq 41 397,2 mlrd so‘m ni, 2023-yilda 46 202 mlrd so‘mni, 2024-yilda esa bu farq 29 787 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz moliya tizimida byudjetlararo munosabatlarning roli yuqori ekanligidan dalolat beradi.

1-jadval

2026 yil uchun Qoraqalpog‘iston respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari, xarajatlari va byudjetlararo tartibga soluvchi transfertlarning prognozi, mlrd so‘m [7]

T-r	Hududlar	Daromadlar	Xarajatlar	Byudjetlararo tartibga soluvchi transferlar
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 815,5	6 314,1	2 498,5
2	Andijon viloyati	5 417,5	7 633,1	2 215,6
3	Buxoro viloyati	5 107,4	6 129,8	1 022,4
4	Jizzax viloyati	2 921,2	4 173,6	1 252,4
5	Qashqadaryo viloyati	5 899,0	7 168,7	1 269,7
6	Navoiy viloyati	4 095,6	199,2	103,6
7	Namangan viloyati	4 697,8	6 985,2	2 287,4
8	Samarqand viloyati	7 200,0	8 903,3	1 703,3
9	Surxondaryo viloyati	3 922,2	6 087,7	2 165,5
10	Sirdaryo viloyati	2 264,3	2 951,4	687,1
11	Toshkent viloyati	7 439,5	7 733,7	294,2
12	Farg‘ona viloyati	6 878,2	9 190,8	2 312,6
13	Xorazm viloyati	3 722,3	5 264,8	1 542,5
14	Toshkent shahar	12 601,9	12 897,1	295,2
	Jami	75 982,4	95 632,4	19 650

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki 2026 yilda mahalliy byudjetlarga 19 650 mlrd so‘m miqdorida tartibga soluvchi transfertlar ajratilishi prognoz qilingan Bundan ko‘rinib turibdiki hali ham mahalliy byudjet xarajatlarining taxminan uchdan bir qismi byudjetlararo transfertlar hisobidan qoplanmoqda. Bu esa mamlakatimizda mahalliy byudjetlarning mustaqillik darajasi sust ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, byudjetlararo munosabatlar mamlakat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, davlat byudjetining turli darajalari o‘rtasida moliyaviy resurslarni shakllantirish va qayta taqsimlash jarayonida vujudga keluvchi munosabatlardir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda mahalliy byudjetlar mustaqilligini ta‘minlash, byudjet daromadi bazasini oshirish hamda byudjetlararo transfertlarni takomillashtirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshiril-yoga chora-tadbirlardan ko‘rishimiz mumkin mamlakatimiz markazlashtirilgan byudjet tizimida bosqichma-bosqich aralash byudjet tizimiga o‘tmoqda. Biroq tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan mahalliy byudjetlar xarajatlari o‘z daromadlaridan oshib ketmoqda, natijada esa hududlar ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida transfertlarga bog‘lanib qolmoqda. Shundan kelib chiqqan holda byudjetlararo munosabatlarni yanada yaxshilash uchun quyidagi takliflarni berib o‘taman:

1. Mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy vakolatlarini oshirish orqali ularning yanada mustaqil faoliyat yuritishini ta‘minlash
2. Mahalliy byudjetlar daromadlari bazasini ko‘paytirish
3. Hududlardagi soliq tushumlarini qayta taqsimlashni takomillashtirish
4. “ Ochiq byudjet” tizimi orqali mahalliy byudjetlar ijrosining shaffofligini ta‘minlash va byudjet jarayonida aholi ishtirokini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi <https://lex.uz/mact/-2304138>
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi <https://www.imv.uz/>
3. Davlat moliyasi: Darslik / B.I. Nurmuxamedova, Sh.K. Xamdamov;– T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 436 b.;
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik (Toshkent I Moliya instituti. — Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet;
5. Perspectives on Fiscal Federalism Edited by Richard M. Bird and François Vaillancourt ©2006 The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW Washington DC 20433;
6. Управление на местном уровне в развивающихся странах / Под ред. Анвара Шаха / Пер. с англ. – М.: Издательство «Весь Мир», 2004 – 328 с. ISBN 978-5-7777-0410-8;
7. Fuqarolar uchun byudjet: 2026 loyiha.
8. <https://www.imv.uz/newsletter/fuqarolar-uchun-budjet-nashrlari>

UDK-338.2

**INVESTITSION QARORLARNI KABUL QILISHDA MOLİYAVIY TAHLILNING
AHAMIYATI VA ROLI**

**ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ПРИНЯТИИ
ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ**

**THE SIGNIFICANCE AND ROLE OF FINANCIAL ANALYSIS IN MAKING
INVESTMENT DECISIONS**

Yuldasheva Gulmira Azatovna

Farg‘ona davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası o‘qıtuvchısı

Moliyaviy tahlil korporativ investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi. U buxgalteriya ma’lumotlarini kapital taqsimlash, xavf va kutilayotgan daromadni baholash imkonini beruvchi tahliliy ko‘rsatkichlarga aylantiradi. Ushbu tadqiqotda moliyaviy ko‘rsatkichlarning investitsiya qarorlarini asoslashdagi roli o‘rganiladi. Xususan, daromadlilik, likvidlik va pul oqimlari ko‘rsatkichlari hamda ROI, ROCE, NPV va Payback Period kabi baholash usullarining qaror sifatiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari moliyaviy tahlilni tizimli qo‘llash kapitaldan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni ta’minlashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy tahlil, investitsiya qarorlari, ROI, ROCE, NPV, Payback period, kapital samaradorligi.

Финансовый анализ является важным источником информации при принятии корпоративных инвестиционных решений. Аналитические показатели, полученные из финансовой отчетности, позволяют оценивать распределение капитала, риск и ожидаемую доходность. В данном исследовании изучается роль финансовых показателей в обосновании инвестиционных решений. В частности, анализируется влияние показателей рентабельности, ликвидности и денежных потоков, а также методов оценки, таких как ROI, ROCE, NPV и срок окупаемости, на качество принятия решений. Результаты исследования показывают, что системное применение финансового анализа обеспечивает эффективное использование капитала и стабильное развитие.

Ключевые слова: финансовый анализ, инвестиционные решения, ROI, ROCE, NPV, срок окупаемости, эффективность капитала.